



UDK: 336.71:336.77:004

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

Abdishukurova E'zoxon

Shamsiyeva Saltanat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali talabalari

Samarqand O'zbekiston

Email: ezoxonabdishukurova1930@gmail.com

shamsiyevasaltanat04@gmail.com

+998(91)-033-30-04

+998(88)-578-23-01

Annotatsiya: Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda bank tizimida kreditlash faoliyatini raqamlashtirishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy mazmuni hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning kredit ajratish jarayonidagi o'rni, xususan, kredit arizalarini qabul qilish, baholash, monitoring va qaror qabul qilish bosqichlarida qo'llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston tijorat banklarida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonini raqamlashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflar kredit olish jarayonini soddalashtirish, vaqt va xarajatlarni qisqartirish, shuningdek, banklar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga qaratilgan. Ish natijalari bank tizimini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Kalit soʻzlar: bank tizimi, tijorat banklari, tadbirkorlik subyektlari, kreditlash, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, fintech, onlayn kreditlash, kredit skoringi, moliyaviy xizmatlar

Аннотация: В работе исследованы вопросы эффективного использования цифровых технологий в процессе кредитования субъектов предпринимательства. Рассмотрены теоретические основы цифровизации кредитной деятельности в банковской системе, её экономическое содержание и практическое значение. Также проанализирована роль цифровых технологий в процессе предоставления кредитов, в частности на этапах приёма кредитных заявок, оценки, мониторинга и принятия решений. На основе результатов исследования разработаны практические предложения и рекомендации по цифровизации процесса кредитования субъектов предпринимательства в коммерческих банках Республики Узбекистан. Данные предложения направлены на упрощение процесса получения кредита, сокращение временных и финансовых затрат, а также на укрепление доверия между банками и предпринимателями. Результаты работы имеют важное значение для развития банковской системы и совершенствования механизмов кредитования в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: банковская система, коммерческие банки, субъекты предпринимательства, кредитование, цифровые технологии, цифровизация, финтех, онлайн-кредитование, кредитный скоринг, финансовые услуги

Abstract: This study examines the issues of effective use of digital technologies in the process of lending to business entities. The theoretical foundations of digitalization of lending activities in the banking system, its economic essence, and practical significance are analyzed. In addition, the role of digital technologies in the credit provision process is studied, particularly at the stages of loan application acceptance, evaluation, monitoring, and decision-making. Based on the research results, practical proposals and recommendations for the



digitalization of lending to business entities in commercial banks of Uzbekistan have been developed. These proposals are aimed at simplifying the loan application process, reducing time and financial costs, and strengthening trust between banks and entrepreneurs. The results of the study are of significant importance for the development of the banking system and the improvement of lending mechanisms in the context of the digital economy.

Keywords: banking system, commercial banks, business entities, lending, digital technologies, digitalization, fintech, online lending, credit scoring, financial services

KIRISH.

O'zbekistonda banklarda tadbirkorlik subyektlarini takomillashtirish jarayoni, iqtisodiy islohotlar va texnologik yangilanishlar kontekstida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon mijozlarning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan o'sibborayotga nehtiyojlarini qondirish, shuningdek, moliyaviy bozorlarning samaradorligini oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga qaratilgan. «O'zbekiston-2030» strategiyasida «Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish hamda banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish» kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Bu o'z navbatida banklarning raqamli transformatsiyasi mijozlarga ko'proq qulay, tez va samarali xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi. Bu jarayon onlayn banking, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda yangi moliyaviy xizmatlarni, jumladan, mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kreditlash dasturlari kabi innovatsiyalarining daromad hajmi hamda samaradorligini oshirish dolzarb masalalaridan biridir.



Tadqiqotning ob'ekti sifatida: "Mikrokreditbank" ATB Qarshi filiali tanlangan.

Raqamli texnologiyalar bank tizimini modernizatsiya qilish, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish hamda tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy xizmatlarni tez va samarali yetkazib berishda muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash va bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, bank kreditlash faoliyatining nazariy asoslari, kredit risklarini boshqarish hamda moliyaviy vositachilikdagi roli klassik va zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritib berilgan.

Tijorat banklarida tadbirkorlik subyektlarini baholashning ayrim jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan O.I.Lavrushin, Yu.A.Gerasina, M.A.Rassel, D.M.Noton va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan G'.Q.Yaxshiboev, O.B.Sattorov, F.O'.Dodiev, A.Omonov, S.Davronov, Sh.Z.Abdullaeva, K.Urinov, K.Ruziev, I.Ya.Qulliev, F.Xolmamatov, Sh.Allayorov va boshqalarning ilmiy ishlarida banklarning kreditlash mexanizmini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan

Tadqiqot metodologiya: Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash va bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, bank kreditlash faoliyatining nazariy asoslari, kredit risklarini boshqarish hamda moliyaviy vositachilikdagi roli klassik va zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritib berilgan.

Tahlil va Natijalar:

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda bank kreditlash jarayonini raqamlashtirish bo'yicha muayyan ijobiy siljishlarga erishilgan bo'lib, bu jarayon



asosan kredit arizalarini qabul qilish, dastlabki baholash va monitoring bosqichlarida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan kredit arizalarini masofaviy tarzda topshirish imkoniyatining yaratilishi bankka murojaat qilish bilan bog‘liq vaqt va hujjat aylanishi xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirmoqda. Kreditlash jarayonida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi kredit ajratish tezligini oshirishga xizmat qilmoqda. Avvallari kredit olish jarayoni bir necha hafta davom etgan bo‘lsa, hozirgi kunda raqamli platformalar orqali dastlabki qarorlarni qisqa muddatda qabul qilish imkoniyati mavjud. Bu esa, ayniqsa, kichik biznes va mikro tadbirkorlik subyektlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur subyektlar uchun moliyaviy resurslarga tezkor kirish imkoniyati ularning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini uzluksiz davom ettirishda muhim omil hisoblanadi.

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash holati (2021–2025-yillar)¹

Yil	Ajratilgan kreditlar hajmi(mlrd so‘mda)	O‘sish sur‘ati(%)	Kreditlarning qaytarilish darajasi (%)	Samaradorlik indeksi*
2021	18500	-	86.4	0.72
2022	21800	17.8	88.1	0.76
2023	25300	16.1	89.5	0.81
2024	29600	17.0	91.2	0.85
2025	34200	15.5	92.7	0.88

¹ Muallif ishlanmasi



Shuningdek, tadqiqot davomida kredit risklarini baholashda raqamli texnologiyalarning roli ham tahlil qilindi. Bank amaliyotida kredit skoring tizimlari, mijozlarning moliyaviy holatini avtomatik tahlil qilish, soliq va boshqa davlat axborot bazalari bilan integratsiya orqali ma'lumotlarni tekshirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu holat kredit risklarini kamaytirish, subyektiv qarorlar ulushini qisqartirish hamda bank aktivlari sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Natijada, kredit portfelining barqarorligi oshib, muammoli kreditlar ulushi pasayishiga zamin yaratilmoqda.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish kredit monitoringi jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Kredit oluvchilarning hisob-raqamlaridagi pul oqimlari, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanilishi hamda to'lov intizomi real vaqt rejimida kuzatilmoqda. Bu esa bankka muammolarni erta aniqlash va zarur choralarni o'z vaqtida ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun ham kredit shartlari va to'lov jadvali bo'yicha shaffoflik ta'minlanmoqda. Raqamli texnologiyalar tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonining samaradorligini oshirish, bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, raqamli kreditlash jarayonini yanada takomillashtirish uchun axborot tizimlarini to'liq integratsiya qilish, kredit skoring modellarini takomillashtirish hamda bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish zarur.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bank tizimini rivojlantirishning muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bank kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini tez va samarali qondirish imkonini berayotganini tasdiqlaydi. Kredit arizalarini masofaviy qabul qilish, dastlabki baholash



jarayonlarining avtomatlashtirilishi va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi kreditlash mexanizmining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, raqamli texnologiyalar kredit ajratish jarayonida vaqt va xarajatlarni qisqartirish bilan birga, kredit risklarini boshqarish sifatini ham yaxshilamoqda. Kredit skoring tizimlari va turli axborot bazalari bilan integratsiya kredit oluvchilarning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini yaratib, subyektiv qarorlar ulushini kamaytirmoqda. Bu esa bank kredit portfelining barqarorligini ta'minlash, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish va bank aktivlari sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan kredit monitoringi tizimi kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilishni kuchaytirib, bank va tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kredit oluvchilarning to'lov intizomi va moliyaviy faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rishga sharoit yaratmoqda. Natijada, kreditlash jarayonida shaffoflik va ochiqlik darajasi oshmoqda.

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalardan foydalanish tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonini tubdan takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Kelgusida bank tizimida raqamli kreditlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish, axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish, zamonaviy kredit skoring modellarini joriy etish hamda bank xodimlarining raqamli ko'nikmalarini oshirish banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish O'zbekiston tijorat banklari, tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimini rivojlantirish, bank xizmatlari sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Yo., To‘xtayev A. Bank ishi. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Mullajonov F., Xudoyberdiyev Z. Bank kreditlari va kreditlash jarayoni. – Toshkent: Moliya, 2019.
3. Musayev, B. Sh., & Eshmatov, A. M. (2020). Bank ishi va pul muomalasi
4. Sattorov O.B. **Tijorat banklarida kreditlash faoliyatini takomillashtirish..**
5. Abdullayeva Sh.Z Bank ishi darslik
6. <https://www.cbu.uz>